

O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar–noyabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar–noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 273 276,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,6 %ga oshdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi¹	273 276,2	114,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 880,0	110,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	13 900,4	111,2
Buxoro	16 313,4	113,3
Jizzax	7 215,9	115,7
Qashqadaryo	15 862,5	119,4
Navoiy	12 957,0	109,4
Namangan	13 823,2	111,4
Samarqand	17 387,8	122,8
Surxondaryo	13 389,4	111,0
Sirdaryo	5 771,4	136,5
Toshkent	29 928,3	109,5
Farg'ona	16 324,1	115,4
Xorazm	11 392,1	110,6
Toshkent shahri	78 766,5	123,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)


¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar–noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- bino va inshootlar qurilishi yo'nalishi 69,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,1 %ga oshdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi yo'nalishi 20,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 27,5 %ga oshdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 55,9 %ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	40 835,3	18 537,0	7 465,0
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	117,9	134,4	186,3
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	78 139,6	38 155,7	20 278,8
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	102,5	124,5	147,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	69 853,2	11,6	-
<i>o'sish sur'ati, %da</i>	106,9	81,3	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 66 837,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 27,4 %ga oshdi. Umumiy hajmdagi ulushi 2,5 % punktga ko'payib, 24,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 50,0 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,2 %ga oshib, 136 574,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,5 % (69 864,8 mlrd so'm) bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 6,9 %ga oshdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, %da		
	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
O'zbekiston Respublikasi²	66 837,3	136 574,1	69 864,8	127,4	113,2	106,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 470,4	4 480,0	2 929,6	156,7	106,9	101,6
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 047,7	7 869,0	4 983,7	137,8	110,7	107,5
Buxoro	2 340,9	7 674,2	6 298,3	133,9	113,4	107,1
Jizzax	959,7	4 304,2	1 952,0	163,2	109,3	114,0
Qashqadaryo	4 616,3	6 672,8	4 573,4	149,3	110,3	110,3
Navoiy	3 492,6	4 305,7	5 158,7	120,1	105,7	105,9
Namangan	1 075,8	5 765,8	6 981,6	131,4	115,7	105,6
Samarqand	1 991,8	12 540,2	2 855,8	123,1	118,6	146,6
Surxondaryo	1 347,5	7 203,9	4 838,0	143,2	108,2	108,3
Sirdaryo	930,5	3 951,5	889,4	158,2	141,7	104,0
Toshkent	4 678,7	15 096,2	10 153,4	124,1	110,7	102,2
Farg'ona	2 702,6	8 644,4	4 977,1	123,3	120,6	103,7
Xorazm	1 162,8	4 626,8	5 602,5	127,9	115,7	104,0
Toshkent shahri	27 655,8	43 439,4	7 671,3	155,2	112,1	105,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (2024-yilning mos davriga nisbatan 163,2 %), Sirdaryo viloyatlarida (158,2 %) va Qoraqalpog'iston respublikasida (156,7 %ga) oshdi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarini o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, yer qatlamini ochish, madaniy-texnik ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumotlar uchun havolalar:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

D. Xidiraliyeva
71 203-80-00 (1163)

Manzil:

